

**REALISTIK VA MODERNISTIK YO‘NALISHDAGI ASARLARDA
ZAMON-MAKON SHAKLLARI**
(Nazar Eshonqul ijodi misolida)

Nilufar Cho‘liyeva A‘zam qizi,
O‘zMU doktranti

***Annotatsiya:** So‘nggi yillar o‘zbek adabiyotida yaratilgan modern asarlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatadigan badiiylik me‘zonlaridan biri bu – zamon va makon masalasidir. Zamon va makonning o‘zaro aloqasini o‘rganish asarning sujeti, kompozitsiyasi va badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari, yutuq-kamchiliklari haqida muayyan xulosaga kelish imkonini beradi.*

Maqolada keyingi yillarda yaratilgan o‘zbek qissalarida zamon va makon uyg‘unligi muammosi, uning ifodalanish shakllari haqida fikr yuritilgan. Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul qissalari misolida mazkur muammoni o‘rganish maqsad qilingan. Tahlillar natijasida an‘anaviy realistik va noan‘anaviy modernistik yo‘nalishda yozilgan qissalardagi zamon va makon tizimini tekshirish hamda qiyoslab o‘rganish nazarda tutilgan.

***Kalit so‘zlar:** modernistik asar, realistik asar, qissa, badiiy zamon, badiiy makon, metaforik xronotop, sintetik xronotop, idilliya.*

O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy zamon va makon, shuningdek, hozirgi adabiy jarayondagi faol ijodkorlarning badiiy mahorati masalasini o‘rganish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Sababi, bugun o‘zbek adabiyoti o‘zining ta’sir kuchini nasriy asarlar, jumladan, qissalarda inson ruhiyatining murakkab badiiy ifodasi (ong osti oqimini ko‘rsatishga urinish), o‘ziga xos tafakkur tarzining aks etishi kabi yangi tamoyillar asosida namoyon etmoqda. O‘zbek adabiyotidagi bu kabi o‘zgarishlar mutaxassislar oldiga yaratilayotgan asarlarga munosib baho berish vazifasini qo‘yadi. O‘zbek yozuvchilari tafakkurni yuksaltirish, kitobxon dunyoqarashini kengaytirish uchun ijod qilmoqdalar, haqqoniy san’atdan zavqlanish hissini ulashmoqdalar. Yozuvchi Nazar Eshonqul ham ayni shu maqsad yo‘lida ijod qilayotgan adiblarimizdandir. Uning asarlari modernizm yo‘nalishida yozilganligi, obrazlar xilma-xilligi va voqelik ramziy tasvirining quyugligi bilan xarakterlidir. Natijada ijodkor mahorati, asarlarining poetikasi va uslubini yaxlit tadqiqot sifatida o‘rganish hozirgi adabiy jarayonda badiiy mahorat hamda janrlar tabiati masalasiga oid ilmiy xulosalar chiqarishga ta’sir etishi bilan dolzarblik kasb etadi. Shu o‘rinda janrlardagi badiiy zamon va makon masalasi ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy zamon va makonning uyg‘unligini ifodalovchi tushuncha – xronotop atamasi bo‘lib, ushbu atamani adabiyotshunoslikka rus olimi Baxtin olib kirgan. Ayni shu davrdan boshlab, zamon va makonni o‘zaro uyg‘un o‘rganish boshlandi. Xronotop va uning ilmiy asoslanishi asarning janri, syujet shakli, kompozitsiyasi, obrazlar sistemasi va tadrijini badiiy makon va zamonning uyg‘unlashuvida yana bir bor ko‘zdan kechirish imkonini berdi. Mixail Baxtinning o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarida [Baxtin M. 2] “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg‘unlikni xronotop (so‘zma-so‘z tarjimada zamon-makon degan ma’noni

bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelinadi. Istilohning biz uchun, matematikada qo‘llanadigan maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma‘noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o‘rinda, istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda (zamonni makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashdir”, deb yozadi.

So‘ngi yillar o‘zbek adabiyotida epik asarlarda zamon va makon masalasini yoritgan bir qancha ilmiy asarlar, tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, S.Mirvaliyev, D.Quronov, A.To‘ychiyev, A.Rasulov, U.Jo‘raqulov, B.To‘rayeva, O‘.Nazarov o‘z tadqiqotlarida badiiy zamon, badiiy makon yoki xronotop masalasiga doir qarashlarini aks ettirdilar yoki muayyan asarlar tahlilida munosabat bildirdilar. Xususan, S.Mirvaliyev [Mirvaliyev S. 6] asarida 60-80 yillar romanlarida badiiy zamon muammosi o‘rganilgan, albatta, bunda zamon va makonning mushtarakligi masalasi ochiq qolgan. D.Quronovning tadqiqotida [Quronov D. 8] Cho‘lpon nasri poetikasi o‘rganilgan. Struktural tahlillar asosida Cho‘lpon asarlarining badiiy zamon va makoni tasvirida davrning ta’siri ko‘rsatib berilgan. A.To‘ychiyev [To‘ychiyev A. 12], A.Rasulov [Rasulov A. 10], B.To‘rayeva [To‘rayeva B. 11], O‘.Nazarov [Nazarov O‘. 7] tadqiqotlarida esa muayyan davr va ma‘lum ijodkorlar asarlarida tasvirlangan zamon-makon tahlil va talqin etilgan. Natijada, o‘zbek adabiyotida mazkur ilmiy tadqiqotlardan so‘ng zamon-makon – xronotop muammosi kengroq o‘rganilgan. Ayniqsa, bu muammodagi ilmiy qarashlarning yuksalishi adabiyotshunos U.Jo‘raqulov izlanishlari bilan bog‘liq. Olim tadqiqotlarida [Jo‘raqulov U. 5] Baxtin olib kirgan xronotop atamasini anchayin kengaytirdi. Uning tadqiqotlarida Navoiy asarlarining xronotopik ko‘lami juda keng ekanligi, mazkur kenglikni tasavvur etish inson aql potensiyalariga sig‘masligi isbotlandi. Natijada Navoiy dahosi va asarlarining badiiy qimmatini, umuman, o‘zbek klassik adabiyotining yuksakligi, mukammalligi ko‘rsatib berildi.

Zamonaviy nasriy asarlarimiz, xususan, qissalarimizda xronotopning real bo‘lmagan tasviri ushbu muammoni yanada mufassalroq o‘rganish kerakligini anglatadi. Shu sababli mazkur maqolada so‘nggi yillarda yaratilgan o‘zbek qissalarining xronotop tizimini o‘rganishni maqsad qildik. Tadqiqot obyekti sifatida Nazar Eshonqulning – “Urush odamlari”, “Momoqo‘shiq”, “Tun panjaralari”, “Qora kitob” [Eshonqul N. 4] qissalarini tanladik. An’anaviy va modernistik usulda yozilgan ushbu qissalar real (badiiy idrok etiladigan) va real bo‘lmagan (tafakkur chegaralarimizga sig‘maydigan) xronotop shaklini qiyoslash imkonini beradi. Natijada quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

har bir qissadagi xronotop tizimini ishlab chiqish;

xususiy – mikro-xronotoplarni aniqlash va ularni yaxlitlash;

qissalarning xronotop shaklini ilmiy asoslash;
qissa sujeti, kompozitsiyasi va obrazlar tizimi muayyan xronotopda tasvirlanishini ko‘zdan kechirish;
muallifning xronotopik uslubini ko‘rsatib berish;
so‘nggi yillarda yaratilgan o‘zbek qissalarining xronotop tizimi haqida tanlangan obyekt asosida ilmiy axborot berish.

Ushbu vazifalar bajarilishi natijasida so‘nggi davr o‘zbek qissalarining badiiy xususiyatlari, ularda aks etayotgan zamon va makon shakllari haqida ma‘lum xulosalar qilinadi.

Mazkur maqolada induksiya metodidan foydalanish o‘rinlidir. Sababi dastavval, har bir qissa xronotopik bo‘laklarga bo‘linadi (analiz qilinadi), so‘ngra ularni yaxlitlab muayyan xulosaga kelamiz (sintez qilinadi). Qissalarning xronotop tizimini o‘rganishda analiz va sintez usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, qiyoslash metodi orqali ikki xil – an‘anaviy va modern usulda yozilgan muallif asarlarining o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib beriladi. Mazkur metodlar Nazar Eshonqul qissalari misolida bugungi o‘zbek qissalarida xronotop shakli haqida ma‘lum tasavvurlarni ilmiy asoslab berish mumkin.

Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasini analiz qilish. Asarda mavjud xronotop tizimini quyidagicha belgilash mumkin: qishloq xronotopi, Normatning va Biydi momoning xonadonlari, kolxoz idorasi, Halil otboqarning kulbasi. Qishloq (Tersota) xronotopi asosiy va umumlashma xronotop bo‘lib, u o‘z ichiga turli yondosh obyektlar: qadim to‘rt yetim urug‘i tarqalgan Olma, Yong‘oqli, Shiboqli, Terakli, Qamashi qishloqlari; Buxor zovlari (qoyalari), daryo, tog‘, sharshara, qiradiz, dala, hayot (tomorqa, bog‘) kabi toponomik va geografik hududlarni ham qamrab oladi. Garchi mazkur qishloqlarning nomlari matndan joy olgan bo‘lsa-da, ularning barchasi abstrakt mohiyat kasb etgan. Ya‘ni qissada hech birining geografik ko‘rinishi konkret va mufassal tasvirlanmaydi. Qissadagi asosiy xronotop qahramonlar taqdirleri hal bo‘ladigan zamonga ega maxsus makonlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Normatning xonadoni aynan shunday xronotopdir.

Normatning uyi voqealar boshlanadigan, tugun qo‘yilgan mikromakon hisoblanadi. Asarning fojiviy yakuni – Anzirat va Mirzaqulning o‘limi ham shu makonda yuz beradi. Biydi momoning xonadoni esa asarda, asosan, ayollar obrazini tasvirlashga qaratilgan. Bu xronotopda momo hukmfarmonligining chegarasizligi, kelinlarning o‘zaro qarama-qarshi fe‘l-atvor sohibalari ekanligi, o‘g‘illaridan qoraxat olgan ona va rafiqalarning ruhiy holatlari, Normat va Biydi momoning voqealarni foje‘ tomonga siljitadigan suhbat-dialoglari tasvirlanadi.

Kolxoz idorasi esa ko‘pchilik badiiy asarlarda voqelangani kabi front orti odamlarining mashaqqatli mehnatini, qahatchilik yillarini tasvirlashga, askarlar

uchun zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlarini jamg‘arishga qaratilgan vositachi makon. Bu xronotop zamonning barcha siyosiy-ijtimoiy belgilarini o‘zida namoyon etgani bilan xarakterlidir. Shuningdek, qissada Mirzaqul rais “faoliyati” orqali “mehr-muruvvat niqobini kiygan” xronotop. Raisning Anziratni qanday qilib o‘ziga og‘dirib olish rejasi ham shu xronotopda tuziladi.

Kolxoz idorasi xronotopi asarga Mirzaqul raisning xudbinona istaklari o‘laroq Halil otboqar kulbasi xronotopini “yetaklab keladi”. Va Mirzaqul tuzgan badbin reja shu makonda amalga oshadi. Natijada Anziratning hayoti shu nuqtadan boshlab boshqa o‘zanda oqa boshlaydi.

Asarda retrospektiv usul orqali ramziy-metaforik ma’no tashiydigan abstrakt makon ham tasvirlangan bo‘lib, bu “urushsiz yurt” xronotopidir. O‘troq qo‘ng‘irotlar urug‘i va ularning oqsoqoli Boyxun (Boysun) boshchiligida o‘z yerlarini tashlab, necha yillar urushsiz yurtni axtarganliklari haqida kiritma hikoya keltiriladi. “Urushsiz yurt” xronotopi M.Baxtin ta’kidlagan, mifologiya va folklor asarlarida shakllangan zamonning u aniqlagan roman tiplariga “tarixiy inversiya” (o‘rin almashinuv) yo‘li bilan o‘zlashgan xronotop shaklining bir ko‘rinishi, deyish mumkin. Ya’ni: “...bu o‘rinda nimaiki o‘tmishda bo‘lib o‘tgan deya tasvirlansa, aslida, kelajakda ro‘y berishi mumkin yoki kelajakda ro‘y beradi. Mohiyatan u o‘tmish voqeligi emas, kelajakning maqsadi, burchi o‘laroq namoyon bo‘ladi” [Baxtin M. 2:33]. Qissada rivoyat shaklida berilgan ushbu hikoyadagi abstrakt makon – “urushsiz yurt” xronotopi ham asar g‘oyasi va muallif niyatiga esh bo‘lgani holda bevosita syujet vaqtidan sizib chiqib, asar anglatmoqchi bo‘lgan tub mohiyatni kelajak zamonga dahldor etgan.

Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq” asarida voqealar bo‘lib o‘tadigan xronotop Baxtin izohlab ko‘rsatgan idillik shaklning aynan o‘zidir. M.Baxtinga ko‘ra, idilliyalarga xos xronotopning asosiy xususiyati: “avvalo, idilliyadagi zamonning makonga munosabatida aks etadi. Hayot hodisalari ona diyorning barcha puchmoqlariga, qadrdon tog‘lar, vodiylar, keng maydonlar, daryo va o‘rmonlaru tug‘ilgan xonadonga naqadar uzviy bog‘langanida ko‘rinadi. Idillik hayot va unga doir voqelik ushbu – bobolar, otalar yashagan, bolalar va nabiralar ham yashaydigan – konkret makon burchaklaridan ayri holatda mavjud bo‘la olmaydi [Baxtin M. 2:134].

Qissa matnida idillik xronotop belgilari hasharchilar, terimchilar, keng-keng paxta dalalari, shiyponlar, chaylalar va u yerlarda hukm surayotgan hayot tarzi tasvirida ko‘rinadi. Bir so‘z bilan aytganda, idillik xronotopdagi “syujet voqeligi kundalik turmush jarayonining badiiy modeli, idillik hayot tabiat maromi bilan qorishib ketgan insoniy umr manzaralari” [Quronov D. va b. 9:108-109] bo‘lsa, asardagi Muazzam obrazi ayni shu “qorishiq”likning bir hosilasidir. Jumladan,

qissada uning tilidan shunday deyiladi: “Mening ildizim shu yerda! Shu odamlar orasida, men boshqa joyda ko‘karmayman” [Eshonqul N. 4:58-59]. Ko‘rinadiki, “Idilliyaviy “men” o‘zi bevosita munosabatda bo‘layotgan muhit qadriyatlarini so‘zsiz qabul qiladi va o‘zligini ularga og‘ishmay amal qilish, muhit bilan birlashib, uyg‘unlashib ketish orqali namoyon etadi.

“Tun panjaralari” qissasida esa Tersota qishlog‘ining asar matnining u yoq-bu yog‘ida “qalqib chiqadigan” tasviri yoki ijara uy xronotopining ijarachi ona va qiz fe‘l-atvorini tasvirlashda g‘ira-shira ko‘rinib qolgan, “eski, tanazzuli muqarrar uy” suvratidan boshqa real makonni uchratmaysiz. Qissa qahramonining Sulaymon bilan uchrashgan bog‘ yoki shaytonlar boshlig‘i bilan uchrashuv joyi (qandaydir bino yerto‘lasi)ning mavhumligi ham asarning aniq makonda yuz bermayotganligini ifodalaydi; ular konkret va batafsil muayyan geografik joy sifatida tasvirlanmaydi. Qahramon yashayotgan xronotop (ijara uy) uning o‘y-mulohazalarida aks etgan mavhum xronotop bilan aralashib, tutashib ketadi.

Muallif qissa syujetida bu kabi noreal tasvirlarni qo‘llab, qahramon “yashayotgan” zamon-makon bilan azaliy (Sulaymon payg‘ambar, Antoniy, Sezar, Kleopatra mavjud bo‘lgan) zamon-makonlarni osongina birlashtira oladi. Qissadagi ana shu uzoq va ulkan xronotop voqealar ro‘y berayotgan asosiy vaqt-zamon – tun bilan “niqoblanadi”. Qahramon tilidan aytiladi: “Tunda mening boshqalarnikiga o‘xshamaydigan umrim boshlanadi. Tunda men o‘tgan kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so‘nayotgan yulduzlarday ko‘z oldimdan bir-bir uchib o‘tadi” [Eshonqul N. 4:158].

“Tun panjaralari” qissasida ikkita xronotop chizig‘i ko‘zga tashlanadi. Bularning birinchisi, real (obyektiv) xronotop chizig‘i bo‘lib, u boshqa bir ikkinchi – syujet vaqti uchun noreal xronotop bilan uyg‘unlashadi va umumiylik (umum zamon-makoniylilik) kasb etadi. Bu holat esa muallif “men”i va adabiy ideali bilan bog‘liqlik o‘laroq vujudga kelgan. Ta‘kidlash joizki, Yevropa adabiyotida xuddi shunday kayfiyatda – “Rahmon va Shayton oralig‘ida turgan inson” haqida yaratilgan asar Gyotening “Faust” asaridir. Ayni shu asarda ham zamon va makonning sintetikligini ko‘rishimiz mumkin. Bu xususda ijodkor Nazar Eshonqulning o‘zi shunday yozadi: “Dunyo adabiyotida “Faust”gacha makon va zamon chegaralarini adabiy maqsadda buzish shartliligi yo‘q edi. Gyote birinchi marta Faust orqali adabiy makon chegaralarini buzdi. Faustni azaldan to abad qadar bo‘lgan vaqtga sayohat qildirdi va bu sayohatdan inson uchun eng zarur xulosalar chiqardi” [Eshonqul N. 3:112]. Asarning “o‘lmas”ligi ham unda tasvirlangan zamon va makonning umumiy va dahlsizligidadir.

Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasi xronotopi esa mutlaq cheksiz bo‘lgan zamon-makon chegaralarida yotuvchi, shu xronotopning yirik qismini o‘z

ichiga oluvchi zamon va makonni qamrab oladi. Ya’ni asar voqeligi chegarasi Odam Ato va Momo Havvoning yaratilishi, so’ngra ularning iblis hiylasi tufayli yuz bergan ulkan xatosi va jannatdan quvilishiga ishora qilib, shu asnodan boshlab – yerdagi ilk Odamdan to bugungi kungacha odamzotning Shayton bilan kurashi kechayotgan xronotopni ramziy ifodalaydi. Demak, qissada Odam Atodan tortib bugungi kunda nafas olayotgan go’dakkacha, hatto qiyomat bo’lguniga qadar yashaydigan odamizot, ayni paytda, yagona (alohidalik shaklidagi umumiy) inson kechmishi muhrlangan. Asarning xronotop maydoni ayni shu tomondan qaragandagina konkretlashadi, muallif talqiniga yaqinlashadi deb o’ylaymiz.

Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasida zamon va makon an’anaviy xronotop shaklida voqelangan. “Urush odamlari” qissasida tasvirlangan zamon urush davri va uning odamlar ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy-ma’naviy hayotida qoldirgan asoratlari asnosida aks ettirilsa, makon esa ana shu insonlar ham jisman, ham ruhan “harakatlanadigan”, yaxlitlashgan, umumiy, va ayni paytda, real, yakka jug’rofiy obyekt (Tersota qishlog‘i) sifatida tasvirlanadi. Qissa matnida aks etgan Buxor qoyalari, qalin o‘rmonlar va ularga tutash qishloq tasviri shunday xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Nazar Eshonqulning “Momoqo‘shiq” qissasidagi xronotop tizimi ham an’anaviy xronotop shaklida bo‘lib, shu an’anaviy xronotop ichida idillik xronotop shakli xususiyatlari ham ko‘zga tashlanadi. Xususan, hasharchilar, terimchilar, keng-keng paxta dalalari, shiyponlar, chaylalar va u yerlarda hukm surayotgan hayot tarzi tasviri – fikrimiz isboti. “Tun panjaralari” va “Qora kitob” qissalaridagi xronotop vertikalik, sinkretiklik, ramziy-metaforiklik xususiyatiga ega bo‘lib, “ayrizamonlikni aynizamonlikka jo qilgan”dir. Ya’ni “Tun panjaralari” qissasi xronotopi sintetik shaklda voqelangan. Qissadagi real zamon-makonning noreal zamon-makon bilan uyg‘unlashuvi asar xronotopining umumiylikini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyobonining ochilishida so‘zlagan nutqi. / Xalq so‘zi, 2020, 21 may, №106 (7608).
2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –Toshkent: Akademnashr, 2015.
3. Eshonqul N. Ijod falsafasi. Mendan “men”gacha-2. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Eshonqul N. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 356 b. Alisher Navoiy «Xamsa»sida xronotop poetikasi: Filol. fan. dokt. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 73 b.
6. Mirvaliyev S. Roman va zamon. – Toshkent: Fan, 1983. – 240 b.

7. Nazarov O‘. Omon Muxtor romanlarida badiiy xronotop muammosi: Filol. fan. fals. dokt. ...diss. – Toshkent, 2018. – 150 b.
8. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. www.ziyouz.com
9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
10. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – 336 b.
11. To‘rayeva B. Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi. Filol. fan. Fals. dokt...diss. – Toshkent: 2018. – 157 b.
12. To‘ychiyev A. O‘zbek romanlarida makon va zamon. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009. – 143 b.